



SIRDARYO VILOYATINING TASHQI SAVDO AYLANMASI



*(2022- yil yanvar-mart oylari
uchun dastlabki ma'lumot)*

Sirdaryo iqtisodiyotini rivojlantirish strategiyasi diversifikatsiyalangan va raqobatbardosh iqtisodiyotni yaratishga, innovatsion texnologiyalar va bozorni boshqarishning yangi usullaridan foydalangan holda milliy resurslardan maksimal darajada foydalanishga yo'naltirilgan. Viloyatning tashqi iqtisodiy faoliyati, xususan, tashqi savdo sohasida amalga oshirilayotgan islohotlarning pirovard natijasi aholining turmush darajasiga bevosita o'z ta'sirini o'tkazadi.

2022- yilning yanvar-mart oylari yakuni bilan viloyatning tashqi savdo aylanmasi (matnda TSA) **203,1** mln. AQSh dollarini tashkil etib, 2021- yilga nisbatan **26,8** mln. AQSh dollariga yoki **15,2** % ga kamaydi.



TASHQI SAVDO AYLANMASI VA BALANSI (yanvar-mart, ming. AQSh dollari)

	2021- yil	2022- yil	O'sish surati, % da	jamiga nisbatan, % da
 Tashqi savdo aylanmasi	176324,6	203116,4	115,2 %	x
Eksport 	53825,7	66746,2	124,0 %	100,0
 <i>tovarlar</i>	53452,1	65988,3	123,5	98,9
 <i>xizmatlar</i>	373,6	757,9	202,9	1,1
Import 	122498,9	136370,2	111,3 %	100,0
 <i>tovarlar</i>	122498,9	136370,2	111,3%	100,0
 <i>xizmatlar</i>	0,0	0,0	0,0	0,0
 Saldo	-68673,2	-69624,0	x	x




Ma'lumot uchun: Sirdaryo viloyatida tovarlar tashqi savdosi statistika ko'rsatkichlarini shakllantirishda, Tashqi iqtisodiy faoliyat tovar nomenklaturasi (keyingi o'rinlarda TIF TN) bilan birgalikda, Birlashgan Millatlar Tashkilotining Xalqaro standartlashgan savdo tasniflagichi (keyingi o'rinlarda – XSST) ishlatiladi. Bu o'z navbatida tahliliy maqsadlarda eksport va import qilinadigan tovarlarni 10 ta katta qismga guruhlash uchun imkon beradi. Tovarlarini XSST bo'yicha kodlashtirish, TIF TN va XSST o'rtasida o'tish kalitlari yordamida amalga oshiriladi.

TSAda eksport hajmi **66,7** mln. AQSh dollariga (**24,0** % ga ko'paydi) va import hajmi **136,4** mln. AQSh dollariga (**11,3** ga ko'paydi) yetdi. Hisobot davrida - **69,6** mln. AQSh dollari qiymatida passiv tashqi savdo balansi qayd etildi.

SIRDARYO VILOYATI BILAN TASHQI SAVDO AYLANMASI ENG YUQORI ULUSHGA EGA BO'LGAN DAVLATLAR

(2022- yil yanvar-mart, ulushi, % da.)



SIRDARYO VILOYATINING TASHQI SAVDO AYLANMASI



Sirdaryo viloyati tashqi savdo aylanmasi yanvar-mart oylarida **203,1** mln. AQSh dollari qiymatida qayd etilib, o'tgan yilning shu oyiga nisbatan **26,8** mln. AQSh dollariga kamaydi.


Iqtisodiyotning real sektori tarmoqlari va korxonalarining barqaror va uzluksiz ishlashini ta'minlash uchun viloyatda zarur resurslar bazasi yaratilgan. Eksport tarkibida sezilarli o'zgarishlarga import tovarlarning o'rnini bosadigan mahsulotlar ishlab chiqarish va sanoat ishlab chiqarishni diversifikatsiya qilish natijasida erishildi.

Shuningdek, qo'shni davlatlar bilan o'zaro aloqalarni mustahkamlash, mamlakatlarni ijtimoiy-iqtisodiy, savdo-sanoat hamda madaniy sohalardagi aloqalarini rivojlantirish borasida katta ishlar amalga oshirilayotganini ko'rish mumkin.

TSAda so'nggi yillarda katta o'zgarishlar kuzatilyapti. Misol uchun, so'nggi uch yilda TSAda Afg'oniston, Qirg'iz Respublikasi, va Qozog'iston bilan tashqi savdo aylanmasi oshgani kuzatilmoqda. Boshqa davlatlar (qo'shni davlatlardan tashqari) bilan esa, TSAda eng yuqori ulush Xitoy Xalq Respublikasi, Rossiya Federatsiyasi, Turkiya va Avstriya davlatlari hissasiga to'g'ri kelgan.



10 TA YIRIK HAMKOR-DAVLATLAR ICHIDA TO'RTTA FAOL TASHQI SAVDO BALANSI KUZATILGAN DAVLATLAR (2022- yil yanvar-mart)



Tashqi iqtisodiy faoliyat bo'yicha 10 ta yirik hamkor-davlatlar orasidan to'rtta davlatda faol tashqi savdo balansi kuzatilgan, xususan, Rossiya Federatsiyasi (**18,8** mln. AQSh dollari), Qozog'iston (**66,9** mln. AQSh dollari), Xitoy Xalq Respublikasi (**34,1** mln. AQSh dollari), va Afg'oniston (**24,1** mln. AQSh dollari) shular jumlasidandir. Qolgan 6 ta davlatlar bilan passiv tashqi savdo balansi saqlanib qolmoqda.

Sirdaryo viloyati jahonning **63** ga yaqin mamlakatlari bilan savdo aloqalarini amalga oshirib kelmoqda. TSA da salmoqli hissasi Rossiya Federatsiyasi (**9,3 %**), Qozog'iston (**33,0 %**), Xitoy Xalq Respublikasi (**16,8 %**), Afg'oniston (**11,9 %**), Germaniya (**1,4 %**), Qirg'iz Respublikasi (**1,2 %**) va Turkiya (**5,3 %**) qayd etilgan.

SIRDARYO VILOYATINING YIRIK HAMKOR DAVLATLAR BILAN TASHQI SAVDO AYLANMASI DINAMIKASI (yanvar-mart, mln. AQSh dollari)











Davlatlar	2020- y.	2021- y.	2022- y.
Rossiya Federatsiyasi	18,2	59,4	18,8
<i>Eksport</i>	6,0	11,0	10,3
<i>Import</i>	12,2	48,4	8,5
Qozog'iston	15,8	40,0	66,9
<i>Eksport</i>	3,2	3,1	3,3
<i>Import</i>	12,6	36,9	63,6
Xitoy Xalq Respublikasi	20,7	27,5	34,1
<i>Eksport</i>	3,8	10,6	15,8
<i>Import</i>	16,9	16,9	18,3



SIRDARYO VILOYATINING YIRIK HAMKOR DAVLATLAR BILAN TASHQI SAVDO AYLANMASI DINAMIKASI

(yanvar-mart, mln. AQSh dollari)




Davlatlar	2020- y.	2021- y.	2022- y.
Afg'oniston	5,7	21,6	24,1
 Eksport	5,7	21,6	23,0
Import	-	-	1,1
Pokiston	0,7	1,4	1,3
 Eksport	0,7	1,4	1,1
Import	0,0	-	0,2
Litva	1,4	0,0	0,5
 Eksport	-	-	-
Import	1,4	0,0	0,5
Qirg'iz Respublikasi	1,6	1,5	2,4
 Eksport	0,2	1,3	0,6
Import	1,4	0,2	1,8
Turkiya	3,9	4,6	10,7
 Eksport	0,5	2,6	6,2
Import	3,4	2,0	4,5
Ispaniya	-	-	0,0
 Eksport	-	-	-
Import	-	-	0,0
Germaniya	2,2	-	2,8
 Eksport	-	-	-
Import	2,2	-	2,8
Tojikiston	0,7	0,6	15,0
 Eksport	0,6	0,5	3,6
Import	0,1	0,1	11,4



SIRDARYO VILOYATINING HUDUDLAR KESIMIDA TASHQI SAVDO AYLANMASI

(yanvar-mart 2022- yil)



	Ming. AQSh dollari	O'sish sur'ati, % da
Sirdaryo viloyati	203 116,4	115,2
Boyovut	9 571,9	132,5
Guliston	5 730,0	119,9
Mirzaobod	8 188,1	125,8
Oqoltin	1399,7	148,1
Sardoba	3 098,8	115,8
Sayxunobod	43 198,9	3,5m.
Sirdaryo	53 645,3	124,1
Xovos	5 871,2	107,0
Guliston sh.	23 492,2	132,6
Shirin sh.	446,3	1,0
Yangiyer sh.	47 704,3	146,8

Eng yuqori hajm,
ming AQSh dollari

Sirdaryo – 53 645,3

Yangiyer sh. - 47 704,3

Sayxunobod - 43 198,9

Eng quyi hajm,
ming AQSh dollari

Sardoba – 3 098,8

Oqoltin – 1 399,7

Shirin sh. – 446,3

Viloyat tashqi savdo aylanmasi tarkibida eng yuqori ulushni Sirdaryo tumani **26,4 %** ulush bilan **53 645,3** ming AQSh dollarini tashkil etdi.



Viloyat tashqi savdo aylanmasi tarkibida eng quyi ulushni Shirin shahri **0,2 %** ulush bilan **446,3** ming AQSh dollarini tashkil etdi.



Viloyatimizda tashqi savdoni qo'llab-quvvatlash hamda MDH davlatlari bilan ushbu sohadagi hamkorlikni yanada mustahkamlash bo'yicha olib borilayotgan chora-tadbirlar natijasida, 2022-yilning yanvar-mart oylarida, tashqi savdo aylanmasida MDH davlatlarining ulushi **53,3 %** ni tashkil etib, tashqi savdo aylanmasidagi 2021- yilga nisbatan ulushi **5,7 %** ga kamaygan.

SIRDARYO VILOYATINING TASHQI SAVDO AYLANMASIDA MDH MAMLAKATLARI VA BOSHQA XORIJIY DAVLATLARNING HAJMLARI DINAMIKASI

(yanvar-mart ming AQSh dollari, ulushi, % da)




Boshqa xorijiy davlatlarning TSAsi 2022- yilning yanvar-mart oylarida 2021- yil ulushiga nisbatan **5,7 %** ga ko'payib va jami TSA'dagi ulushi **46,7 %** ni tashkil etdi.



SIRDARYO VILOYATINING MDH MAMLAKATLARI BILAN TASHQI SAVDO AYLANMASI

(2022- yil yanvar-mart, ming AQSh dollari)




1992- yil 4- yanvarda O'zbekiston Respublikasi MDH (Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi) ga a'zo bo'ldi. Sirdaryo viloyatining MDH mamlakatlari bilan tashqi savdo aylanmasi 2022- yil yanvar-mart holatiga **152 044,4** ming. AQSh dollarini tashkil etdi. Shundan eksport **40 813,1** ming AQSh dollariga yetgan bolsa, import **111 231,3** ming AQSh dollari qiymatida qayd etildi.

Sirdaryo viloyatining MDH mamlakatlari bilan tashqi savdo aylanmasining eng yuqori hajmlari Rossiya Federatsiyasi (**12,4 %**), Qozog'iston (**44,0 %**), Qirg'iz Respublikasi (**1,6 %**), Xitoy Xalq Respublikasi (**22,4 %**) va Tojikiston (**9,8 %**) davlatlari bilan qayd etildi.




SIRDARYO VILOYATINING YEVROOSIYO IQTISODIY ITTIFOQIGA A'ZO DAVLATLAR BILAN TASHQI SAVDO AYLANMASI


(yanvar-mart, ming AQSh dollari, ulushi, % da)




Jami tashqi savdo aylanmasidagi ulushi



Jami eksportdagi ulushi



Jami importdagi ulushi



2020- yil 11- dekabrda O'zbekiston Respublikasi Yevroosiyo iqtisodiy ittifoqida kuzatuvchi maqomini oldi. YOII bilan Sirdaryo viloyatining tashqi savdo aylanmasi **122 202,1** ming AQSh dollarini tashkil etdi. Shundan eksport hajmi **29 865,3** ming AQSh dollari, import hajmi esa **92 336,8** ming AQSh dollariga yetdi.



SIRDARYO VILOYATI EKSPORTI


(2022- yil yanvar-mart)



Joriy yilning yanvar-mart oylarida viloyatning eksportyorlari soni **110** tani tashkil etib, ular tomonidan **66 746,2** ming AQSh dollari qiymatidagi (2021-yilning mos davriga nisbatan **24,0** % ga ko'paydi) tovar va xizmatlar eksport qilinishi ta'minlandi.

XSST BO'YICHA EKSPORT TARKIBI

(2022- yil yanvar-mart, ulushi, % da)



Eksport tarkibida tovarlar ulushi **100,0** % ni tashkil etib, ular sanoat tovarlari (**39,3** %), oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar (**41,8** %) va kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o'xshash mahsulotlar (**3,6** %) hissasiga to'g'ri kelmoqda.



SIRDARYO VILOYATI XSST BO'YICHA EKSPORT TARKIBI *(yanvar-mart, oylari yillar kesimida)*



XSST tarkibi	Ming AQSh dollari		O'sish sur'ati, % da		Umumiy hajmga nisbatan. % da	
	2021- y	2022- y	2021 -y	2022- y	2021- y	2022- y
Jami eksport	53 825,7	66 746,2	197,1	124,0	100,0	100,0
shu jumladan:						
Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar	26 576,2	27 749,5	2,9m.	104,4	49,4	41,8
Ichimliklar va tamaki	0,0	16,9	0,0	0,0	0,0	0,0
Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg'idan tashqari	4 923,9	3 447,3	66,6	70,0	9,2	5,2
Mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shunga o'xshash materiallar	0,0	1,0	0,0	0,0	0,0	0,0
Hayvon va o'simliklar moylari (yog'lari), yog'lar va mumlar	0,0	731,9	0,0	0,0	0,0	1,1
Kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o'xshash mahsulotlar	566,8	2 402,1	46,5	4,2m.	1,0	3,6
Sanoat tovarlari	14 887,5	26 056,4	2,5m.	175,0	27,7	39,3
Mashinalar va transport asbob-uskunolari	1067,2	1025,5	2,2m.	96,1	2,0	1,5
Turli hil tayyor buyumlar	5 430,5	4 557,8	185,3	83,9	10,1	6,9
Xizmatlar	326,2	757,8	158,0	2,3m.	0,6	0,6



SIRDARYO VILOYATI EKSPORTI



Sirdaryo viloyati eksporti yanvar-mart oylarida **66 746,2** ming AQSh dollari qiymatida qayd etilib, o'tgan yilning shu oyiga nisbatan **12 920,5** ming AQSh dollariga ko'paydi.

XSST BO'LIMI BO'YICHA AYRIM MAHSULOTLAR EKSPORTI TARKIBI (2022- yil yanvar-mart)



XSST bo'limi nomi	Ming AQSh dollari	2021- yilga nisbatan, % da
Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar		
Sabzavotlar va mevalar	4846,0	82,8
Donli ekinlar va ulardan tayyorlangan mahsulotlar	22240,9	111,3
Sut mahsulotlari va qush tuxumlari	221,2	0,0
Shakar, shakardan tayyorlangan mahsulotlar va asal	58,8	2,3m.
Ichimliklar va tamaki		
Ichimliklar	0,2	0,0
Tamaki va tamaki mahsulotlari	16,7	0,0
Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg'idan tashqari		
To'qimachilik tolalari va ularning chiqindilari	1315,1	31,1
Tabiiy kauchuk (sun'iy kauchuk va regeneratsiya qilingan rezina xam)	81,7	0,0
Moy olinadigan urug'lar va moy olinadigan mevalar	324,5	52,0
Qog'oz massasi va makulatura	1562,4	33,8m.
Mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shunga o'xshash materiallar		
Tabiiy yoki sun'iy gaz	0,0	0,0
Elektr toki	0,0	0,0
Neft va neft mahsulotlari va shunga o'xshash materiallar	1,0	0,0



XSST BO'LIMI BO'YICHA AYRIM MAHSULOTLAR EKSPORTI TARKIBI (2022- yil yanvar-mart)



XSST bo'limi nomi	Ming AQSh dollari	2021- yilga nisbatan, % da
Hayvon va o'simliklar moylari (yog'lari), yog'lar va mumlar		
O'simlik moylari va yog'lari (xom, tozalangan yoki fraksiyalangan)	731,9	0,0
Kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o'xshash mahsulotlar		
Boshqa joyda tasniflanmagan kimyoviy materiallar va mahsulotlar	1011,7	2,1m.
Birlamchi shakilda bo'lmagan plastmassalar	118,4	4,2m.
Bo'yaydigan va terini oshlovchi moddalar va boyo'qlar	59,4	0,0
Tibbiyot va farmasevtika mahsulotlari	1137,9	15,8m.
Sanoat tovarlari		
To'qimachilik yigirilgan ipi, matolar, tayyor buyumlar va shunga o'xshash mahsulotlar	17455,5	182,4
Teri, boshqa joyda tasniflanmagan teridan tayyorlangan buyumlar, muyna	5568,4	150,1
Ruda bo'lmagan qazilmalardan tayyorlangan mahsulotlar, boshqa joyda tasniflanmagan	2498,5	2,8m.
Mashinalar va transport asbob-uskunalari		
Aniq sohalar uchun mahsus mo'ljallangan mashinalar	118,6	114,4
Elektr mashinalari, apparatlar va asboblari, boshka joyda tasniflanmagan, va ularning elektr qismlari (boshka joyda tasniflanmagan elektr maishiy asboblarning elektr bo'lmagan qismlari ham)	150,3	0,0
Sanoat uchun mahsus bo'lmagan mashinalar va ularning detallari	712,3	73,9
Turli hil tayyor buyumlar		
Kiyim-kechaklar va ularning anjomlari	3957,7	78,4
Har hil tayyor buyumlar	296,7	77,0





MDH VA BOSHQA DAVLATLARGA TOVAR VA XIZMATLAR EKSPORTI HAJMLARI DINAMIKASI

(yanvar-mart, ming AQSh dollari, ulushi, % da)



So'nggi uch yilda MDH mamlakatlariga eksport hajmi kamaydi va ularning jami eksportdagi ulushi 2021-yilning yanvar-martidagi **30,4** % dan 2022- yilning yanvar-martida **27,3** % ga kamaydi. Mos ravishda boshqa mamlakatlarning jami eksportdagi ulushi **72,7** % ni tashkil etdi.



VILOYAT EKSPORTIDA ASOSIY HAMKOR DAVLATLARNING ULUSHI (2022- yil yanvar-mart, % da)

2022- yilning yanvar-mart oylari yakunida tovar va xizmatlar eksporti bo'yicha asosiy hamkor davlatlar tarkibida Afg'oniston (eksport umumiy hajmining **34,7** %), Rossiya Federatsiyasi (**15,5** %), Xitoy Xalq Respublikasi (**23,8** %), Pokiston (**1,7** %), Qozog'iston (**4,9** %), Turkiya (**9,4** %) va boshqa davlatlarning eksportdagi ulushi **9,2** foizni tashkil etmoqda.



SIRDARYO VILOYATINING ASOSIY HAMKOR DAVLATLARGA AMALGA OSHIRGAN EKSPORT HAJMI VA O'SISH SUR'ATLARI *(yanvar-mart, yillar kesimida)*




Davlatlar	Ming AQSh dollari		O'sish sur'ati, % da		O'rni	
	2021- y	2022- y	2021- y	2022- y	2021- y	2022- y
Afg'oniston	21 586,2	23 058,0	3,7 m.	106,8	1	1
Rossiya Federatsiyasi	10 973,9	10 270,9	181,7	93,6	2	3
Xitoy Xalq Respublikasi	10 578,6	15 760,5	2,7m.	149,0	3	2
Qozog'iston	3 067,9	3 282,8	94,5	107,0	4	6
Turkiya	2 585,2	6 229,7	5,2 m.	2,4 m.	5	4
Tojikistan	487,2	3 570,7	88,3	7,3 m.	7	5
Qirg'iz Respublikasi	1 308,7	551,1	6,2 m.	42,1	6	7



SIRDARYO VILOYATINING HUDUDLAR KESIMIDA EKSPORTI (2022- yil yanvar-mart)



	Ming. AQSh dollari	O'sish sur'ati, % da
Sirdaryo viloyati	66 746,2	124,0
Boyovut	3 885,7	77,4
Guliston	5 127,4	142,1
Mirzaobod	6 730,4	191,9
Oqoltin	886,1	181,7
Sardoba	1 168,7	92,5
Sayxunobod	5 902,9	93,9
Sirdaryo	16 653,0	141,1
Xovos	4 128,8	163,3
Guliston sh.	4 989,5	78,8
Shirin sh.	0,0	0,0
Yangiyer sh.	16 881,6	130,4

Eng yuqori hajm,
ming AQSh dollari

Yangiyer sh. – 16 881,6

Sirdaryo – 16 653,0

Mirzaobod – 6 730,4

Eng quyi hajm,
ming AQSh dollari

Boyovut – 3 885,7

Sardoba – 1 168,7

Oqoltin – 886,1

Viloyatning eksporti tarkibida eng yuqori ulushni Sirdaryo **24,9** % ulush bilan **10 477,3** ming AQSh dollarini tashkil etdi.

Viloyatda eksport tarkibida eng quyi ulushni Shirin shahri **0,0** % ulush bilan **4,5** ming AQSh dollarini tashkil etdi.



MEVA-SABZAVOT MAHSULOTLARI EKSPORTI



Sirdaryodagi meva-sabzavot sektori mamlakat va hududlarning oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashda muhim segment hisoblanadi. Shuning uchun, bu sohada meva va sabzavot mahsulotlari ishlab chiqarishni jadal rivojlantirish uchun barcha choralar ko'rilmoqda, bu esa o'z natijalarini bermoqda.

Oziq-ovqat mahsulotlarining asosiy qismi bo'lgan **4 846,0** ming AQSh dollari qiymatli **5 664,3** tonnadan ziyod meva-sabzavot eksport qilingan. Bunda 2021- yilning mos davriga nisbatan **1 009,7** ming AQSh dollarida pasayganni kuzatilib, **17,2** % ga kamaydi. Meva-sabzavot mahsulotlarining eksport tarkibiga qaralsa, **4 099,4** ming AQSh dollariga teng **5 168,0** tonna sabzavot, shuningdek, **746,6** ming AQSh dollari qiymatidagi **496,3** tonna meva va rezavorlar eksport qilindi.

MEVA-SABZAVOT MAHSULOTLARI EKSPORTI

(2022- yil yanvar-mart)



Meva-sabzavot mahsulotlarining asosiy eksport bozorlari Rossiya Federatsiyasi, Qozog'iston hamda Pokiston davlatlari hissasiga to'g'ri kelgan.

Hukumat tomonidan qishloq xo'jaligi va bog'dorchilikni rivojlantirishga katta e'tibor qaratilayotgani bois, eksport qilinayotgan meva va sabzavotlarning ulushi **7,3** % ni tashkil etdi.

MEVA-SABZAVOT MAHSULOTLARINING EKSPORT

GEOGRAFIYASI (2022- yil yanvar-mart)

Davlatlar	Tonna	ming AQSh dollari	ulushi, % da *
Afg'oniston	224,2	156,9	6,0
Pokiston	274,0	934,6	28,1
Rossiya Federatsiyasi	766,9	1341,0	28,1
Qozog'iston	2214,8	323,0	4,7
Xitoy Xalq Respublikasi	344,5	275,6	10,5
Eron (Islom Respublikasi)	451,3	444,1	6,5

* qiymat ifodasidan

Meva va sabzavotlar eksportining qiymat jihatidan eng katta hajmi Rossiya Federatsiyasiga to'g'ri keladi (meva va sabzavotlar eksporti umumiy hajmining **28,1** % ga tashkil etdi.)



SIRDARYO VILOYATINING IMPORTI

(2022- yil yanvar-mart)




2022- yilning yanvar-mart oylarida import hajmi **136 370,2** ming AQSh dollarini va 2021- yilga nisbatan **111,3 %** ni tashkil etdi.

Import tarkibida eng katta ulush, oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar (**34,1 %**), kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o'xshash mahsulotlar (**24,8 %**) hamda mashinalar va transport asbob-uskunalari (**20,2 %**) hisobiga to'g'ri keldi.

XSST BO'YICHA IMPORT TARKIBI

(2022- yil yanvar-mart ulushi, % da)



Tovarlar importi dinamikasi tahliliga ko'ra, 2022- yilning yanvar-mart oylarida import qilingan tovarlar hajmi, o'tgan yilning mos davriga nisbatan **13 871,3** ming AQSh dollariga kamayib va **136 370,2** ming AQSh dollarini tashkil etdi.



SIRDARYO VILOYATI XSST BO'YICHA IMPORT TARKIBI *(yanvar-mart, oylari yillar kesimida)*



XSST tarkibi	Ming AQSh dollari		O'sish sur'ati, % da		Umumiy hajmga nisbatan, % da	
	2021 - y	2022 -y	2021-y	2022-y	2021 - y	2022 -y
Jami import	122498,9	136370,2	172,3	111,3	100,0	100,0
shu jumladan:						
Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar	29 767,8	46 450,0	2,6 m.	156,0	24,3	34,1
Ichimliklar va tamaki	0,0	0,0	0,0	0,0	0,0	0,0
Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg'idan tashqari	4125,4	18 746,5	106,7	4,5 m.	3,4	13,7
Mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shunga o'xshash materiallar	37 634,5	3 106,4	11,6m.	8,3	30,7	2,3
Hayvon va o'simliklar moylari (yog'lari), yog'lar va mumlar	99,2	133,5	82,7	134,6	0,0	0,1
Kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o'xshash mahsulotlar	9 666,4	23 874,2	42,0	2,4 m.	7,9	24,8
Sanoat tovarlari	6 829,7	4 947,9	168,4	72,4	5,6	3,6
Mashinalar va transport asbob-uskunalar	32 352,7	27 488,8	140,5	85,0	26,4	20,2
Turli hil tayyor buyumlar	2 023,2	1623,0	73,3	80,2	1,7	1,2
Xizmatlar	0,0	0,0	0,0	0,0	0,0	0,0



SIRDARYO VILOYATI IMPORTI



Sirdaryo viloyati importi yanvar-mart oylarida **136 370,2** ming AQSh dollari qiymatida qayd etilib, o'tgan yilga nisbatan **13 871,3** ming AQSh dollariga kamaydi.

XSST BO'LIMI BO'YICHA AYRIM MAHSULOTLAR IMPORTI TARKIBI (2022- yil yanvar-mart)



XSST bo'limi nomi	Ming AQSh dollari	2021-yilga nisbatan, % da
Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar		
Donli ekinlar va ulardan tayyorlangan mahsulotlar	40651,5	152,7
Shakar, shakardan tayyorlangan mahsulotlar va asal	62,1	88,9
Har xil oziq-ovqat mahsulotlari va preparatlar	1394,2	2,1m.
Tirik hayvonlar , 03 bo'lmiga kiritilgan hayvonlardan tashqari	1468,0	117,1
Ichimliklar va tamaki		
Tamaki va tamaki mahsulotlari	0,0	0,0
Ichimliklar	0,0	0,0
Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg'idan tashqari		
Probka va yog'och-taxtalar	796,5	81,9
56 bo'limga kiritilmagandan tashqari o'g'itlar uchu xom-ashyolar	201,2	192,5
Moy olinadigan urug'lar va moy olinadigan mevalar	2149,1	85,8
To'qimachilik tolalari va ularning chqindilari	15274,3	208,8m.
Mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shunga o'xshash materiallar		
Neft va neft mahsulotlari va shunga o'xshash materiallar	147,2	0,4
Ko'mir, koks va briketlar	2959,1	113,6

XSST BO'LIMI BO'YICHA AYRIM MAHSULOTLAR IMPORTI TARKIBI (2022- yil yanvar-mart)




XSST bo'limi nomi	Ming AQSh dollari	2021-yilga nisbatan, % da
Kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o'xshash mahsulotlar		
Tibbiyot va farmasevtika mahsulotlari	536,9	118,5
Birlamchi shakldagi plastmassalar	13268,0	5,7m.
Boshqa joyda tasniflanmagan kimyoviy materiallar va mahsulotlar	1595,5	113,5
Bo'yaydigan va terini oshlovchi moddalar va buyoklar	1755,0	62,3
O'g'itlar (272 guruxga kiritilganlardan tashkari)	13921,7	39,6m,
Noorganik kimyo moddalari	1868,4	118,2
Sanoat tovarlari		
Cho'yan va po'lat	545,6	48,8
Metaldan tayyorlangan buyumlar	487,5	56,5
Ruda bo'lmagan qazilmalardan tayyorlangan mahsulotlar	680,5	99,4
Probka va daraxtdan tayyorlangan buyumlar (mebeldan tashkari)	2518,5	70,9
Mashinalar va transport asbob-uskunolari		
Aniq sohalar uchun maxsus mo'ljallangan mashinalar	20 223,2	103,1
Sanoat uchun maxsus bo'lmagan mashinalar va ularning detallari	5 821,4	193,2
Avtomobillarning ehtiyot qismlari	295,9	20,5
Elektr mashinalari, apparatlar va asboblari, boshqa joyda tasniflanmagan, va ularning elektr qismlari (boshqa joyda tasniflanmagan elektr maishiy asboblarning elektr bo'lmagan kislari xam)	530,6	22,2
Turli hil tayyor buyumlar		
Maxsus, ilmiy va nazorat asboblari va apparatlari	463,3	89,4
Blokli binolar, suv o'tkazish, kanalizatsiya isitish va yoritish uskunolari uchun armatura va mahkamlash moslamalari	132,6	12,7
Har hil tayyor buyumlar	543,0	2,7m.
Xayvonlar va o'simliklar moylari (yog'lari), yog'lar va mumlar		
O'simlik moylari va yog'lari, xom, tozalangan yoki fraktsiyalangan	133,5	134,6



MDH VA BOSHQA DAVLATLARGA TOVAR VA XIZMATLAR IMPORTI HAJMLARI DINAMIKASI


(2022- yil yanvar-martda, ming AQSh dollari, ulushi, % da)



2022- yilning yanvar-mart oylari yakuni bo'yicha Sirdaryo viloyati tomonidan **36** davlatdan tovarlar va xizmatlar importi amalga oshirildi. Yetti yirik hamkor davlatlar (Xitoy Xalq Respublikasi, Rossiya Federatsiyasi, Germaniya, Qozog'iston, Turkiya, Avstriya va Turkmaniston) jami importning **75,2 %** ulushini tashkil qildi, bu **102 548,4** ming AQSh dollarini tashkil etdi.



VILOYATNING IMPORTIDA ASOSIY HAMKOR DAVLATLARNING ULUSHI (2022- yil yanvar-mart, % da)



SIRDARYO VILOYATINING ASOSIY HAMKOR DAVLATLARGA AMALGA OSHIRGAN IMPORT HAJMLARI VA O'SISH SUR'ATLARI (yanvar-mart, yillar kesimida)




Davlatlar	Ming AQSh dollari		O'sish sur'ati, % da		O'rni	
	2021- y	2022- y	2021- y	2022- y	2021- y	2022- y
Rossiya Federatsiyasi	48 384,9	8 553,5	3,9m.	17,7	1	3
Qozog'iston	36 951,4	63 646,3	2,9m.	172,2	2	1
Xitoy Xalq Respublikasi	16 882,5	18 309,8	99,7	108,5	3	2
Qirg'iz Respublikasi	235,5	1 827,1	17,0	7,7m.	7	6
Turkiya	2 043,2	4 485,5	2,1m.	2,1m.	4	4
Ukraina	286,0	69,6	34,1	24,3	6	7
Turkmaniston	1 767,8	4 087,3	21,2	23,1m.	5	5

SIRDARYO VILOYATINING HUDUDLAR KESIMIDA IMPORTI

(2022- yil yanvar-mart)



	Ming AQSh dollari	O'sish sur'ati, % da
Sirdaryo viloyati	136 370,2	111,3
Boyovut	5 686,2	2,5 m.
Guliston	602,6	51,3
Mirzaobod	1 457,7	48,5
Oqoltin	513,6	112,3
Sardoba	1 930,1	136,7
Sayxunobod	37 296,0	6,2 m.
Sirdaryo	36 992,3	117,8
Xovos	1 742,4	58,9
Guliston sh.	18 502,7	162,4
Shirin sh.	446,3	1,0
Yangiyer sh.	30 822,7	157,7

Eng yuqori hajm,
ming AQSh dollari

Sayxunobod – 37 296,0

Sirdaryo – 36 992,3

Yangiyer sh. - 30 822,7

Eng quyi hajm,
ming AQSh dollari

Guliston – 602,6

Oqoltin – 513,6

Shirin sh. – 446,3

Viloyat importi tarkibida eng yuqori ulushni Sayxunobod **27,3** % ulush bilan **37 296,0** ming AQSh dollarini tashkil etdi.

Viloyat importi tarkibida eng quyi ulushni Shirin shahri **0,3** % ulush bilan **446,3** ming AQSh dollarini tashkil etdi.



MASHINALAR VA TRANSPORT ASBOB-USKUNALARI IMPORTI



2022- yil yanvar-mart oylarida import tarkibida mashinalar va transport-asbob uskunalari hajmi **27 488,8** ming AQSh dollarini tashkil etib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan **15,0** foizga kamaydi va importning umumiy hajmidagi ulushi **20,2 %** ga yetdi.

Import tarkibida asosiy ulushni tashkil qilayotgan mashinalar va transport asbob-uskunalar asosan qaysi davlatlardan viloyatimizga olib kirilayotganini quyidagi ma'lumotdan ko'rish mumkin.

MASHINA VA ASBOB-USKUNALAR IMPORT QILINGAN ASOSIY HANKOR DAVLATLAR (2022- yil yanvar-mart)



1,3%

Avstriya

356,9 ming.
AQSh dollari

40,6%

Xitoy Xalq Respublikasi

11 160,2 ming.
AQSh dollari

7,2%

Rossiya Fedratsiyasi

1 975,8 ming.
AQSh dollari

11,9%

Turkiya

3 263,2 ming.
AQSh dollari

7,8%

Germaniya

2 151,6 ming.
AQSh dollari

Aniq sohalar uchun maxsus mo'ljallangan mashinalar (**103,1 %**), shuningdek, sanoat uchun maxsus bo'lmagan mashinalar va asbob-uskunalar, boshqa joyda tasniflanmagan (**193,2 %**) importi ko'payishi bevosita ta'sir qilgan.



SANOAT TOVARLARI IMPORTI



2022- yil yanvar-mart oylarida import tarkibida sanoat tovarlari hajmi **4 947,9** ming AQSh dollarini tashkil etib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan **27,6** foizga kamaydi va importning umumiy hajmidagi ulushi **3,6** % ga yetdi.

SANOAT MAHULOTLARI IMPORT QILINGAN ASOSIY HAMKOR DAVLATLAR (2022- yil yanvar-mart)



Rossiya Federatsiyasi

2 813,1 ming. AQSh dollari
ulushi – 56,9 %



Xitoy Xalq Respublikasi

1334,4 ming. AQSh dollari
ulushi – 27,0 %



Qozog'iston

349,6 ming. AQSh dollari
ulushi – 7,1 %



Turkiya

111,0 ming. AQSh dollari
ulushi – 2,2 %



Sanoat tovarlari importi asosan probka va daraxtdan tayyorlangan buyumlar (**2518,5** ming AQSh dollari), cho'yan va po'lat (**545,6** ming AQSh dollari), va ruda bo'lmagan qazilmalardan tayyorlangan mahsulotlar, boshqa joyda tasniflanmagan (**680,5** ming AQSh dollari) va boshqalardan tashkil topgan.

Tashqi iqtisodiy faoliyat va savdo
statistikasi bo'limi
Tel.: (67) 236 86 34

